

YOSH OILALARNI TADBIRKORLIKKA PSIXOLOGIK JIHATDAN
TAYYORLASHDA OILAVIY BIZNESNING RO'LI

Jumabekov Ziyovuddin Xazratqul o'g'li

GulDPi "Pedagogika" kafedrası stajyor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10608290>

Annotatsiya. Barcha xalqlar uchun yosh oila muammolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hozirgi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy psixologiyada oilaviy hayot muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, uning hali yetarli darajada o'rganilmagan tomonlari ham yuzaga kelmoqda.

Kalit so'zlar: Oila, ta'lim-tarbiya, tadbirkorlik, biznes, oilaviy hamkorlik, psixologik muhit va ijtimoiy psixalogik yondashuvlar.

THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF
YOUNG FAMILIES FOR ENTREPRENEURSHIP

Abstract. Researching the socio-psychological features of the problems of young families for all peoples remains one of the current issues of psychology. No matter how large-scale scientific research on the problems of family life is carried out in social psychology, there are still insufficiently studied aspects of it.

Key words: Family, education, entrepreneurship, business, family cooperation, psychological environment and social psychological approaches.

РОЛЬ СЕМЕЙНОГО БИЗНЕСА В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ
МОЛОДЫХ СЕМЕЙ К ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВУ

Аннотация. Исследование социально-психологических особенностей проблем молодой семьи у всех народов остается одним из актуальных вопросов психологии. Как бы широкомасштабные научные исследования проблем семейной жизни ни проводились в социальной психологии, существуют еще недостаточно изученные аспекты этого.

Ключевые слова: Семья, образование, предпринимательство, бизнес, семейное сотрудничество, психологическая среда и социально-психологические подходы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn

Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, o'z sohasining ustalari bo'lgan insonlarga bog'liq. Shu bois mamlakatimizda aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Agar oilada shaxslararo munosabatlar madaniyati shakllangan bo'lsa, oila a'zolarining jamiyatda o'z o'rini, qadrini topishga o'z istak va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo'qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo'ladi. Oila a'zolari jamiyatda ham o'z o'rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. G.Roland esa o'z izlanishlarida yosh er-xotinar oilasidagi shaxslararo munosabatdan qoniqishlari uchun zarur kommunikativ sifatlarni ajratib ko'rsatgan:

1. Muloqotchanlik.
2. Oilada yuqori darajadagi o'zaro tushunish.
3. Er-xotinlarning jinsiy qoniqqanligi.
4. Emotsional qo'llab-quvvatlashning mavjudligi va ishonch.
5. "Uy"ni oiladagi hamjihatlikni belgilovchi maskan deb qarash.

Yuqoridagi fikrlarimizga doir dalillarni uzoq chet el psixologlari olib borgan tadqiqotlar natijalaridan ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarida so'rov davrida 266 ta oilaviy muammolar bo'yicha shug'ullanadigan maslahatchilar (mutaxassislar) o'rganib ko'rilganda, ularning e'tirof etishicha, ulardan yordam so'rab murojaat qilgan har 10 ta oilaning 9 tasida o'zaro munosabatlarda anchagina qiyinchiliklar sodir bo'layotganligini aytib berganlar. Mazkur qiyinchiliklardan: fikr va maslamlarning mos kelmasligi - 86,6% ni, bolalar va ularning tarbiyasi bilan bog'liq muammolar - 45,7% ni, jinsiy munosabatlarga doir muammolar - 43,7% ni, moliyaviy yechimsiz muammolar - 37% ni, madaniy muammolar - 37,6% ni, tug'ishganlar bilan munosabat - 28,4% ni, er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik - 26,6% ni, xo'jalik ishlari bilan bog'liq masalalarda - 16,7% ni, ma'naviy-jismoniy haqoratlash - 15,6% ni tashkil etadi. Aynan shu kabi muammolarga doir, ya'ni er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning me'yorli kechishini amerikalik tadqiqotchilar V.Metyuza va K.Mixanovichlar o'rganganlar. Ular baxtli va baxtsiz oilalar (shartli ravishda) orasidagi o'ndan ortiq zarur farqlarni ko'rsatib o'tganlar. Bulardan oilada

er-xotin munosabatlaridagi tengsizlik; bir-birini yaxshi tushunmaslik; jahl bilan gapirish; o'zini tahqirlanganligini sezish; e'tiborsizlik; umidsizlik; ishonchsizlik; janjallarni sodir etib turish; bir-birining fikriga qo'shilmaslik, e'tibor talablik kabilar oilada baxtsizlik keltiruvchi muhim omillardir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, ko'pchilik psixologlarning fikriga ko'ra, oilaviy baxt bo'lishi uchun nizoli oilalarda yetarlicha psixologik shart-sharoitlar mavjud emas. Bu esa yosh oilada sog'lom psixologik muhitni ta'minlaydigan er-xotin munosabatlariga xos sifat va fazilatlar yetarli shakllanmaganligidan dalolat beradi..

MUHOKAMA

Oilaning ijtimoiy tuzumi haqida gapirganda, u bajarayotgan ulkan vazifalarga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. Shunday qilib, birinchi funktsiya (va eng muhimlaridan biri) tarbiya yoki, shuningdek, ijtimoiylashuvdir. Ya'ni, oilada ota ona bolalarga xulq-atvor me'yorlarini o'rgatish, ularni axloqiy qadriyatlar va axloq tushunchalari bilan tanishtirish, o'z shaxsiy pozitsiyasi va fikrini himoya qilish juda muhimligini tushuntirishga majburdir. Oilada ota ona tushuntirishi, misollar keltirishi, bolalar bilan gaplashishi kerak - lekin hech qanday holatda ma'lum bir munosabatni o'rnatishga harakat qilmang.

XULOSA

Ijtimoiy jarayonlarda yani oilaning boshqaruvchanlik qobiliyati, o'zaro bir biriga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik pedagogik omillarni yoritib berish, oila tizimida barcha oila azolarida ijtimoiy boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirish, va barcha shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishi kerak.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997.
2. G'oziev E.G'. —Pedagogik psixologiya asoslaril. Toshkent. 1997.
3. V.Karimova—Psixologiya. Toshkent. 2000.
4. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi) . T. , O'qituvchi, 1994.
5. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychiyeva
6. S.M., Mavlonov M. —Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
7. Ilhomovna, M. S. (2021). Eco-friendly environment-the foundation of a healthy generation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 892-895.

8. Musurmonova, S. I. (2021). THE ROLE OF PARENTS IN ENVIRONMENTAL EDUCATION FOR SMALL CHILDREN. In НАУКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 104-106).
9. Мусурмонова, Ш. И. (2021). IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS-INTEGRATIVE CONTENT OF EDUCATION. Интернаука, (24-3), 84-85.
10. Ilhomovna, M. S. (2021, July). HEALTHY ENVIRONMENT-HEALTHY COMMUNITY. In Archive of Conferences (pp. 62-66).
11. Tovbaevna, M. N., & Hayrinso, O. (2022). Pedagogical fundamentals of developing the creative professional activity of future primary school teachers.
12. Mukhammatovna, E. D., Tovboevna, M. N., Kushakovna, A. S., Egambaevich, U. K., Shakirovich, Y. S., & Yusufvna, S. D. (2021). Improving the Methodology for Preparing Future Primary School Teachers for Innovative Professional Activities. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 5490-5498.
13. Мисирова, Н. Т., & Ўришова, Х. (2022). БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ИЖОДИЙ КАСБИЙ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. Science and innovation, 1(B3), 35-39.
14. Rozimatov, J. (2023). ENHANCING THE METHODOLOGY FOR UTILIZING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS (USING NATURAL SCIENCE AS AN EXAMPLE). Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 11-13.
15. Ravshan, A., Sirojiddin, G., Azamat, Z., & Gulizahro, T. (2023). DEVELOPING EFFECTIVE APPROACHES TO THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(6), 53-55.